

## DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHASI VA UNING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH MASALALARI

Mirzaxodjaev Mansur

Bank - moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11193146>

**Annotatsiya.** Maqolada davlat-xususiy sheriklik tushunchasining mohiyati, ahamiyati va afzalliklari, davlat-xususiy sheriklik loyihasining samaradorligini tahlil qilish masalalari hususida so‘z boradi. O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik qonunining qabul qilinishidan ko‘zlangan maqsad, davlat va xususiy sheriklar vazifalari, afzalliklari, uning mohiyati hamda iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyatini kuchaytirish haqida fikrlar bayon etiladi. .

**Kalit so‘zlar:** davlat-xususiy sheriklik, qonun, davlat, xususiy sherik, loyiha, xususiy sektor.

## ISSUES OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP PROJECT AND ANALYSIS OF ITS EFFECTIVENESS

**Abstract.** The article deals with the essence, importance and advantages of the concept of public-private partnership, issues of analyzing the effectiveness of the public-private partnership project. The purpose of the adoption of the law on public-private partnership in Uzbekistan, the tasks and advantages of public and private partners, its nature and strengthening its importance in the development of the economy are described.

**Key words:** public-private partnership, law, state, private partner, project, private sector.

## ПРОБЛЕМЫ ПРОЕКТА ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА И АНАЛИЗ ЕГО ЭФФЕКТИВНОСТИ

**Аннотация.** В статье рассматриваются сущность, значение и преимущества концепции государственно-частного партнерства, вопросы анализа эффективности проекта государственно-частного партнерства. Описаны цель принятия закона о государственно-частном партнерстве в Узбекистане, задачи и преимущества государственных и частных партнеров, его сущность и усиление его значения в развитии экономики.

**Ключевые слова:** государственно-частное партнерство, право, государство, частный партнер, проект, частный сектор.

Davlat - xususiy sheriklik loyihasi - avvalo uzoq muddatli shartnoma, bitimdir. Bu bitimning o‘ziga xos alomatlari shundan iboratki, loyihaning xatari, moliyaviy manbalar ham xususiy sektor zimmasida bo‘ladi. Bu moliyaviy manbani olib kirishdan nima manfaatdor degan savol tug‘ilishi mumkin. Avvalo bu davlatning talabi bor joylarga kiritiladi. Aholi infratuzilmalarini oshirishga qaratilgan sohalar aeroportlar, yo‘llar, tibbiyot sohasi bo‘lishi mumkin. Bu loyihalar 3 yildan 49 yilgacha bo‘ladi. Bu shuni anglatadiki, loyiha murakkabdir.

Chunki, vaqtlar o‘tib ko‘p narsalar, masalan narxlar, iste’molchilar, mamlakat demografiyasi o‘zgarishi mumkin. Shuning uchun, buni puxta tayyorlash lozim. Loyihani tayyorlashda g‘oyadan boshlab shartnomani imzolashga 18 oygacha vaqt talab etiladi. Bunga zamonaviy menejment tizimini joriy qilish ham mumkin.

Davlat - xususiy sheriklik loyihasining tashkil etilishi loyihaning 5 xil bosqichda, murakkab bitimlar va turli manfaatlarga ega bo‘lgan ko‘plab ishtirokchilarni o‘z ichiga oladi.

So'nggi yillarda DXSh rejimi ijtimoiy kapital va hukumatni boshqarishning yangi modeli sifatida ko'rilmoxda hamda uni rivojlantirish tobora ko'proq mamlakatlarning e'tiborini tortmoqda. 2022 yilda mamlakatimizda hukumat va ijtimoiy kapital tomonidan hamkorlikning yangi shakli bo'lgan DXSh rejimi ishga tushirilgan. Ijtimoiy himoyaning ba'zi ko'rinishlari masalan, keksalarni parvarish qilish, suvni tejash kabilar, shuningdek DXSh modeli qurilish, transport, muhandislik - kommunal va boshqa loyiham, nafaqat bozorning barcha turlariga jalb qilish va qurilish loyihami uchun mablag'lar manbasini kengaytirish, mavjud infratuzilma loyihami yaxshilash, ijtimoiy kapitalning ishtiyoqini uyg'otadi. Hukumat va ijtimoiy kapitalni amalga oshirish uchun DXSh rejimi termoyadroviy, ko'p darajali xizmatlar bozorini tashkil qiladi va uni amalga oshira oladi. Internet texnologiyasidan to'liq foydalanish loyiha qurilishi samaradorligini oshiradi. DXSh modeli asta-sekin turli moliyalashtirish modellarini shakllantirmoqda va rivojlanish jarayonida turibdi. Garchi ko'plab moliyalashtirish usullari mavjud bo'lsa ham, umumiy jarayonlarga hech qanday katta farqlar yo'q: birinchidan, hukumat xususiy sub'ektga loyihami bajarish uchun ruxsat beradi, keyin esa xususiy subyekt kelishilgan muddatda loyihami quradi va foydalanishga topshiradi hamda boshqarishga javobgar bo'ladi.

Avtorizatsiya muddati tugagandan so'ng, xususiy subyekt loyihami hukumatga to'liq o'tkazadi va undan to'laligicha chiqadi.

Ba'zi tadqiqotchilar muayyan sektor, mamlakat yoki alohida loyihamaga e'tiborni qaratib, DXSh samaradorligini empirik tahlil qilishga uringanlar. Bu tashabbuslar DXShning keng doirasini qamrab oluvchi, ishlarni tahlil qilishda faqat jadval ma'lumotlaridan foydalanadilar.

Boshqa tadqiqotchilar esa DXSh samaradorligini aniqlashda hayot tsikli bosqichlarining ahamiyatini ham hisobga olishadi bu esa loyihaming turli bosqichlarida dinamik masalalarini baholashga imkon beradi. Loyiha muvaffaqiyati indeksi va dastur tashkiloti samaradorligi indeksi avvalgi tadqiqotlarda ishlab chiqilgan.

Davlat-xususiy sherikligi - bu ilmiytadqiqot ishlardan tortib to xizmatlargacha bo'lган sohalarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lган loyihamalar va dasturlarni amalga oshirish uchun davlat va xususiy biznes o'rtaisdagi institutsional va tashkiliy ittifoqdir.

Dunyo mamlakatlarida mavjud davlat va xususiy sheriklik munosabatlarining mazmun-mohiyati, xususiyatlari, tamoyillari, rivojlanish tarixi, huquqiy asoslarini o'rganish va uni mamlakatimizda rivojlantirish oldimizga qo'yilgan vazifalardan biridir.

Davlat va xususiy sektoring o'zaro teng manfaatli xamkorligining tashkil etilishi iqtisodiyotning har bir sub'ektini korporativ samaradorligi ko'rsatkichlari bilan bog'liq bir nechta tadqiqotlar mavjud xolos. Davlat-xususiy sheriklik loyihamining muddat bilan uning moliyaviy samaradorligi balansliligini ta'minlash sherrilikdagi tomonlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning samarali yo'li hisoblanadi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihamarida minimal kutilayotgan daromadlilikni belgilash xususiy investor uchun loyihamada ishtiroy etishda bitta stimul vazifasini bajaradi. Zero, minimal daromadlilikni belgilash xususiy sektor uchun moliyaviy risk darajasini kamayishiga olib keladi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihamarining shartnomasi muddati loyihamadan kutilayotgan daromadlilik va kapital bahosiga o'zini ta'sirini ko'rsatadi.

**Davlat-xususiy sherikchiligi loyihasining iqtisodiyotga ta'siri.**

Eng avvalo, xarajatlar qisqaradi. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sherikchiligi bo'yicha loyihalarning umumiy xarajatlari, to'g'ridan-to'g'ri bitim bo'yicha loyihalarga nisbatan 20-30 foizgacha qisqaradi. Bu nimaning hisobiga bo'ladi? Davlat-xususiy sheriklik loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish, unga ketadigan xarajatlarning chuqur tahlili, qulay hududni tanlash, malakali mutaxassislarni jalg qilish barchasini o'z zimmasiga oladi. Boshqacha aytganda, davlat xizmatlari bepul amalga oshiriladi. Xususiy sektor esa mavjud xavf-xatarni bo'yniga olib, loyihani moliyalashtiradi. Eng asosiysi, davlat ushbu loyihalarni tartibga solishda o'z vakolatlarini saqlab qoladi. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida davlat tomonidan qo'shiladigan hissa xususiy sherik majburiyatlari orqali qoplanadi.

Davlat xususiy sherikchiligining yana bir ijobjiy jihatlaridan biri iqtisodiyotni raqobatbardoshligini ko'tarishdir. Xususiy tomon raqobatdoshlaridan ko'ra ko'proq foyda olish maqsadida bozordagi talabni sinchkovlik bilan o'rganadi. Natijada, xizmat sifatini oshirishga intiladi. Eng muhim jihat shundaki, xususiy sektor davlatga qaraganda tashabbuskorona fikrlaydi.

Ichki talabni yaxshiroq tushunadi, iste'molchilar xohish-istagini hisobga oladi. Chunki sherikchilik uzoq muddatga kelishiladi va jiddiy xatarlardan iborat bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizdag'i davlat-xususiy sheriklik loyihalarida xususiy investorlarni faolligi past darajada qolmoqda. Bunga iqtisodiyotda davlat ishtirokining nihoyatda yuqoriligi, loyihalarni moliyalashtirishda moliya bozori orqali mustaqil moliyaviy resurslarga jalg qilishdan manfaatdorlikning yuqori emasligi, davlat-xususiy sheriklik loyihalarida samaradorlikni yetarlicha emasligi kabilar bevosita sabab bo'lmoqda. Shundan kelib chiqqan holda mazkur muammolarni hal qilish bo'yicha alohida tadqiqot ishlari zarur hisoblanadi.

1-rasm. DXSH loyixasini amalga oshirishda muvaffaqiyat omillari.

Birinchi omil:

- Bu shartnomalar tarmog'i tayanadigan yuridik institutlar va qonunlarning sifati.

Ikkinchi omil:

- Har bir munosabatlar va shartnomaning tafsilotlari qarzdorlarning xavf-xatarni his qilishiga ta'sir qilishi.

Xulosa. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyaviy samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqildi:

Birinchidan, Davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarini sof joriy qiymatini ta'sir oraliqlarini hisobga olgan holda belgilash lozim va bu orqali davlat-xususiy sheriklik loyihalari moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlarini ishonchhliligi va samaradorlik doirasini belgilab olishga xizmat qiladi;

Ikkinchidan, davlat-xususiy sheriklik loyihalarida xususiy investor uchun minimal daromadlilikni kafolatlash maqsadga muvofiqdir, chunki, minimal kutilayotgan daromadlilikni belgilash loyihalarning amalga oshirilishida albatta xususiy investor uchun turtki bo'lib xizmat qiladi. Zero, loyihada ishtirok etish orqali hech bo'limganda ma'lum darajada daromadga erishishni oldindan ko'ra biladi.

Uchinchidan, loyihaning sof joriy qiymatlarini turli hil ssenariylar asaosida tahlil qilish va kutilayotgan sof joriy qiymatning o‘zgarish darajasini belgilash va kutilayotgan daromadlilik darajalarini pragnozlash, shu asosda xususiy investor uchun moliyaviy risklar darajasini kamayishiga olib keladi.

#### **REFERENCES**

1. “Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) to‘g‘risida”gi URQ-537 sonli Qonun. 2019-yil 10-may.
2. Qodirov A.M, Axmediyeva A. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanishda xorij tajribasi. “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanishning dolzARB masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ilmiy maqolalar va materiallar to‘plami. 2019-yil 11-oktyabr.
3. Хашимова С.Н. Мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришда давлатхусусий шерикликнинг аҳамияти. // Молия.Илмий журнал. №1/2020
4. Джиянмуратова Г.Ш., Гафуров О.У. Совершенствование государственной молодежной политики в Новом Узбекистане. Ijtimoiy davlat sharoitida jamiyatni faollashtirish va davlat fuqarolik xizmatini rivojlanadirish imkoniyatlari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2023-yil 26-may. – B. 182-185. / [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=fdboTmYAA AAJ&pagesize=80&citation\\_for\\_view=fdboTmYAAAAJ:MLfJN-KU85MC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAA AAJ&pagesize=80&citation_for_view=fdboTmYAAAAJ:MLfJN-KU85MC)